

BUYUK MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIYNING TA'LIM – TARBIYA TO'G'RISIDAGI FIKRLARI VA UNING HOZIRGI KUNDA TUTGAN O'RNI

Baxtiyorova Munira Mansur qizi

Nukus Davlat Pedagogika instituti 3 – kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazishda ta'lism – tarbiyaning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Islom Karimov fikrlari, Shavkat Mirziyoyev fikrlari, ta'lism, tarbiya, barkamol avlod.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida ta'kidlanganidek, Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lism - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda". Bunda bizning boy adabiy merosimiz katta ahamiyat kasb etadi. Shunday adabiy meroslarni qoldirgan buyuk bobokalonlarimizdan biri Alisher Navoiy ta'lism - tarbiya to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlar qoldirgan. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madanyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning sanatkoridir. Tabir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron – bir inson yo'qli, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va etiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir. Uning "Xazoyin – ul – maoniy" «Mahbub-ul-qulub» va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma'naviyati o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Shu bilan birga o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: «Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi», deydiki, bu orqali ta'lism va tarbiya jarayonidagi o'qituvchi shaxsini markaziy shaxs sifatida ko'radi. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rinn egallaydi. Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri xaqidagi g'oyalar Alisher Navoiyning adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar tavsifga ega. Buyuk

alloma inson egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va kasb hunar u tomondan vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerakligini alohida takidlab o'tgan. Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur o'y- xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoир nazarida muxabbat - bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida oljanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlaming faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoирning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi. Uning ijodida ya'na muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi! kerak. O'qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi. Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanda) tasodifiy murabbiya ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratlari tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratlari tarbiyachi bo'lishi lozim deb ilm - odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi. Alisher Navoiy o'z adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob fikrлами bayon qilgan. Bugungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

"Til shirinligi - ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydali.

Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir " deydi alloma.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining til boyligi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, shirin tillilik o'quvchilarni o'qitish va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'qituvchining til boyligi nutqining obrazli, chiroyligi, jarangdor, namunaligi bo'lishini ta'minlaydi, natijada o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Yana Alisher Navoiy yoshlarni mehnatga o'rgatish to'g'risida ham fikrlar bildirgan. U yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatini qadirlashga chaqirgan. Demak Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rila digan chora-tadbirlar yig'indisi. Demak, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qad-riyatdir. Ta'lim esa o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi o'quv faoliyatidan iborat bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish jarayonidir, hayotiy tajribani o'qituvchidan o'quvchiga uzatishdir. Hozirgi kunning talabi bu ikki faolyatni birgalikda olib borishdir. Bu to'g'risida esa buyuk bobokalonimiz juda ko'plab ma'lumotlar qoldirgan. U ilim, marifat haqida ajoyib

fikrlarni olg'a surdi. U aqil ilim insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: "Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", degan shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi. Buyuk so'z san'atkori va mutafakkiri o'zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag'ishlaydi. "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta'limiy dostondir. Navoiy bu asarida o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga ta'lim va o'git berish masalalariga katta e'tibor beradi. Xulosa qilib aytish kerakki 2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategyasining 5 – yo'nalishi – ma'naviy taraqqiyotni taminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishning asosiy maqsadlaridan biri, bu buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish, uni xalqimiz o'rtasida keng targ'ib etishga qaratilgan. Shu manoda bugun Alisher Navoiyning inson qadrini ulug'lash, ta'lim – tarbiya to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlar qoldirgan. 2021 – yil 27 – dekabrda Prezident yoshlarimizga hazrati Navoiy ijodini chuqur o'rgatishni tizimli yo'lga qo'yish ahamyatli ekanligini takidlaydi. Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz qalbimiz nurga to'ladi, ma'naviy boyligimiz ortadi va tafakkurimiz esa rivojlanadi. Hozirgi kunning talabi bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishda asos bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi Pedagogik psixologiya " Toshkent – 2019.
2. B.X.Xodjayev. "Umumi pedagogika nazaryasi va amalyoti"(pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik) Toshkent-2017
3. J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov, I.Sh. Alqarov, N.O'.Usmanov " Pedagogika " Toshkent – 2016.
- 4.R. Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K. Matnazarova " Umumi pedagogika nazariyasi va amalyoti " Toshkent – 2013
- 5.A.Xoliqov " Pedagogik mahorat " Toshkent " Iqtisod – moliya " 2011.
6. Nodira Egamberdieva " Ijtimoiy pedagogika " Toshkent – 2009.
7. Islom Karimov " Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch " Toshkent – 2008.
8. <https://xs.uz>
9. <https://saviya.uz>